# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o‘rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

1931
TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
**Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farxod,** O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i
**Eshov Mansur Po'latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori
**Karimov Norboy G'aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universititi rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o'qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To'lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi .................. 6
**Muxiddin Kalonov,** i. f. d., professor
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi .................. 11
**Jumayev Olimjon Sadulloyevich,** tadqiqotchi
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari .................. 18
**Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li,** tayanch doktorant
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash .................. 24
**Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich,** PhD
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish .................. 27
**Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li,** PhD
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi .................. 34
**Mamaraximov Bekzod Erkinovich,** i. f. n., dotsent
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari .................. 39
**Normurodova Zebo Eshmaxmatovna,** kafedra o'qituvchisi
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar .................. 44
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili .................. 50
**Berdiyev Anvar Abduraxmonovich,** tayanch doktorant
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati .................. 56
**G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi,** mustaqil tadqiqotchi
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish .................. 61
**Olimjanova Nigora Alisherovna,** mustaqil izlanuvchi
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli .................. 65
**Saydirasulov Laziz Alimovich,** doktorant
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar .................. 71
**Tulayev Mirzakul Salamovich,** kafedra dotsenti; **Axmedov Akbarali Sultonmurodovich,** i. f. n (PhD)
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций .................. 78
**Урдабаев Жарылкап Ермекбаевич,** независимый исследователь
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий .................. 83
**Махмудов Носир Махмудович,** д. э. н., профессор; **Фозилова Фирангиза Комиловна,** докторант
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati .................. 89
**Sherali Xolliyev,** kafedra o'qituvchisi
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni .................. 94
**Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna,** mustaqil tadqiqotchi
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari .................. 99
**Xakimov Ziyodulla Axmadovich,** dotsent; **Axmadova Rayxona Jasurbek qizi,** tadqiqotchi
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari .................. 103
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi .................. 108
**Abdiyeva Flora Botir qizi,** tayanch doktorant
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar .................. 114
**Abdullayev Farxod Ozodovich,** mustaqil tadqiqotchi
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari .................. 119
**Hakimjon Hakimov,** tadqiqotchi
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country .................. 125
**Sanakulova Barnogul Rizakulovna,** Doctor of Economic Science, Professor;
**Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli,** Senior researcher

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Sanoat korxonalarining iqtisodiy oʻsishi va barqaror rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari ....129
**Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi**
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution ....133
**Mirziyo Sodikov Odiljon ogli**
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili ....138
**Roʻzmamatov Abbos Tolibjon oʻgʻli,** magistrant
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish ....144
**Saydullayev Azamat Joʻraqul oʻgʻli,** tayanch doktorant
Eksport – mamlakat iqtisodiy oʻsishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida ....151
**Sharifi Ahmad Sakhrob,** mustaqil izlanuvchi
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны ....156
**Суюнова Фотима Баходир кизи,** базовый докторант
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi ....161
**Xatamov Nurbek Ochildiyevich,** erkin tadqiqotchi
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni oʻqitish va rivojlantirishning oʻrni ....169
**Gʻaniyeva Dilnoza Baxriddin qizi,** doktorant
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане ....174
**Жуманиязова Феруза,** PhD, доцент
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari ....179
**Mamatov Bahromjon Shavkatovich,** dotsenti, PhD
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari ....184
**Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna,** mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning oʻrni ....190
**Nilufar Sharipova,** PhD
Dunyoda qorakoʻl teriga boʻlgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar ....197
**Nurillayev Jamoliddin Yarashevich,** doktorant, i. f. n., dotsent
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va koʻrsatkichlari ....201
**Oʻroqov Mamurali Odil oʻgʻli,** tayansh doktarant
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi ....208
**Razzaqov Jasur Hamraboyevich,** dotsent, PhD
Сравнительный анализ методов оценки финансирование инновационных разработок предприятие ....212
**Рузиева Дилноза Абдусаматовна,** независимый исследователь
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yoʻllari ....216
**Saydullayev Shaxzod Sherzodovich,** PhD
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения ....222
**Хажиев Бахтиёр Душабоевич,** dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari. ....227
**Adizov Sardor Rashidovich,** mustaqil izlanuvchi
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish ....231
**Mamatov Sardor Axmatjonovich,** mustaqil tadqiqotchi
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili ....238
**Abrorov Sirojiddin Zuxriddin oʻgʻli,** PhD
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана ....243
**Мирзахалилова Азизахон Алишеровна,** докторант
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish ....249
**Sultanov Maxmud Axmedovich,** dotsent, PhD
Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining oʻrni ....254
**Xojiyev Elshod Yoqub oʻgʻli,** PhD; **Fayzullayev Shuhrat Sherali oʻgʻli,** tayanch doktorant
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики ....259
**Отакулов Махамаджон Каримович,** PhD, и.о. доцент
Milliy turizm tarmogʻida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ....264
**Xalilov Sirojiddin Sherali oʻgʻli,** PhD
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari ....268
**Eshmatov Sanjar Ashirqulovich,** mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)

O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari ....272
**Gadoyev So'hrob Jumakulovich,** PhD, dotsent
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея....277
**Алимова София Розумбаевна,** независимый исследователь
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish....282
**Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich,** tayanch doktorant
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish....290
**N. N. Ismatullayeva,** tayanch doktarant
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili....293
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili....298
**Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna,** tayanch doktorant
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка....304
**Жураева Нодира Фузулий кизи,** ассистент кафедры
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari....310
**G. Abduvosidova,** kafedra o'qituvchisi
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari....315
**Nazarov Shohbek Isroilovich,** magistrant
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish....320
**Mamatov Axmetjon Atajanovich,** professor; **Allaberganov Zakir Gayibovich,** dotsent
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari....327
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li,** magistrant
Byudjyetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli....330
**Norov Akbar Ruzimamatovich**
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi....335
**Xoliqov Ulug'bek Rustamovich,** t.f.n.
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba....341
**N.N.Ro'ziyev**
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish....350
**Astanov Sherzod Rustamovich,** mustaqil tadqiqotchi
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies....356
**Nosirova Charos**
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari....364
**Irgasheva Gulbahor Sodiqovna,** tayanch doktorant
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari....369
**Abduxamidova Gulxayo,** tadqiqotchi
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili....374
**Xatamov Nurbek Ochildiyevich,** erkin tadqiqotchi
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала....380
**Дадаханова Саида Махаммаджон кизи,** докторант
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами....386
**Хайдарова Малика Шакирджановна,** преподаватель кафедры
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili....396
**S.T.Toshaliyeva,** PhD
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida....403
**Ruzibayev Jahongir Nodirovich,** tadqiqotchi
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida....407
**Nabiyev Feruz Nurmurodovich,** tadqiqotchi
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish....412
**Imomova Nodira Shavkatovna** tadqiqotchi, **Sultonov Mansur Qilichevich** PhD
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish....416
**Xashimova Naima Abitovna,** i.f.n., professor; **Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent**
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar....421
**M.A.Saparova, talaba**

# MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARI SHAKLLANISHI VA MUAMMOLARINING AMALIY HOLATI VA TAHLILI



**Ollokulova Feruza Mansurovna**
PhD, Termiz davlat universiteti
Moliya kafedrasi dotsent v.b

Annotatsiya: Maqolada mahalliy byudjetlar daromadlarining manbalari taqsimoti, Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibi tadqiq etish va hududlar kesimida mahalliy byudjetlarining daromadlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: fiskal siyosat, mahalliy byudjet, daromadlar, xarajatlar, soliq stavkasi, moliyaviy barqarorlik, rentabellik, moliyalashtirish.

Аннотация: В статье описано распределение источников доходов местных бюджетов, проведено исследование состава доходов местных бюджетов и доходов местных бюджетов в разрезе регионов.

Ключевые слова: налогово-бюджетная политика, местный бюджет, доходы, расходы, налоговая ставка, финансовая стабильность, рентабельность, финансирование.

Abstract: The article describes the distribution of sources of local budget revenues, conducted a study of the composition of local budget revenues and local budget revenues by region.

Key words: fiscal policy, local budget, income, costs, annual rate, financial recovery, annuity, finance.

## KIRISH

Mamlakatimizda byudjet tizimini yanada isloh qilish, davlat byudjetini xalqaro andozalarga muvofiq keladigan tarzda rivojlantirish, byudjet istiqbolini belgilashning yangi mexanizmlaridan foydalanish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjet daromadlarini istiqbolini belgilashni takomillashtirishni talab etadi. Umuman olganda, so'nggi yillarda mahalliy byudjet ko'rsatkichlari belgilanganidan ham yuqori darajada amalga oshirilishi, defitsitga emas profitsitga erishib kelinmoqda. Iqtisodiyotning davlat sektorini boshqarish borasidagi islohotlar bir qator yo'nalishlarni qamrab oladi:

- boshqaruv sohasidagi islohotlar;
- byudjet munosabatlarini rivojlantirish va tartibga solish, shu jumladan, byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;
- byudjet jarayonini isloh etish; byudjet sohasini qaytadan tashkil etish va boshqalar.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bir vaqtning o'zida mahalliy byudjetlarning daromadlari manbalarini shakllantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, ularning tarkibida soliqli daromadlar muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqli daromadlar soliq ma'muriyatchiligi, mahalliy byudjetlar daromadlar bazalarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda siyosiy omillarning ta'siri hisobga olingan holda tashkil etilishi ko'zda tutilgan.

Aytish joizki, hududlarning alohida xususiyatlari hisobga olingan holda mahalliy byudjetlar tarkibiy tuzilishi o'rtasida taqsimoti belgilab qo'yilgan (1-jadval).

1-jadval: Mahalliy byudjetlar daromad manbalari taqsimoti[1]

| Tuman mahalliy byudjeti | Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari |
|---|---|
| 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i<br>2. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i<br>3. Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i<br>4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigani mustasno.<br>5. Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xomashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno | 1. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i<br>2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i<br>3. Elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq<br>4. Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i<br>5. Aylanmadan soliq<br>6. Bojxona bojlari<br>7. Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar<br>8. Avtotransport vositalarini xarid qilganlik uchun ularni ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazishda avtotransport egalari (foydalanuvchilar) tomonidan to'lanadigan yig'imlar<br>9. Mobil aloqa xizmati va alkogolli ichimliklar, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar, tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisining respublika aholisidagi ulushiga muvofiq. |

O'zbekistonda erkin tadbirkorlikning yanada rivojlanib borayotganligi, mahalliy byudjetlar daromadlar ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, ishbilarmonlik sohasidagi daromadlarga cheklovlarning barham topilishi bilan topilayotgan daromadlarning turlari ham ko'payib bormoqda, shu bilan birga yuqori daromad oladigan mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligi asta-sekin ko'payib bormoqda. Shuning uchun ham hozirda mahalliy byudjetlarda soliqqa tortish amaliyotimiz kam va yuqori daromad oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlar guruhlash tizimiga o'tish tadbiri daromadlarni adolatli ravishda soliqqa tortish tizimi tomon muhim qadam bo'ladi. Mahalliy byudjet daromadlari tarkibini 2.1-chizmada ko'rib chiqaylik.




1-chizma: Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibi2

1-chizmaga muvofiq, mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida o'z daromadlari, biriktirilgan daromadlar, tartibga soluvchi daromadlar va moliyaviy transfertlar o'z o'rniga ega. 2.1-chizmada keltirilgan mahalliy byudjetlarni daromadlari tarkibi keltirilgan. Ushbu chizmaga asosan mahalliy byudjet daromadlar tarkibiga asosan to'rt guruhga bo'linishi ko'rsatib o'tilgan. O'z daromadlari tarkibini tahlil qiladigan bo'lsak, mahalliy soliqlar va yig'imlar (er va mol-mulk solig'i, ayrim tovarlar bo'yicha savdo huquqini beruvchi ruxsatnomalar uchun yig'im, bozorlardan tushumlari)dan tashkil topgan.

Mamlakatimizda 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq hamda mahalliy byudjetlarning daromadlari bazasini tubdan mustahkamlash, uning yuqori turuvchi byudjetlar ajratmalariga qaramligini qisqartirish maqsadida hududlarni kompleks rivojlantirish barqaror moliyalashtirilishini ta'minlash, markaz byudjetiga qaramlikni keskin kamaytirish, byudjetlararo munosabatlarni tubdan isloh qilish orqali mahalliy byudjetlar mablag'larini boshqarishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining mustaqil ish olib borishini kuchaytirish mamlakat byudjet siyosatining asosiy vazifalari etib belgilangan[3]. Bugungi kunda ustuvor vazifalarning bajarilishi hamda mahalliy byudjetlar daromad bazasini kengaytirish va

1 O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 9-dekabrdagi "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" O'RQ-589-son qonuni asosida tuzildi.
2 Ilmiy tadqiqot naijasida muallif tomonidan tayyorlangan
3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 iyundagi «Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5075-sonli Farmoni.

xarajatlarini maqbullashtirishda ularning manfaatdorligini oshirishni ta’minlaydigan mahalliy davlat hokimiyati organlarining byudjet vakolatlari va majburiyatlarini belgilashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishda quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimliklariga o‘z hududidagi soliq to‘lovchilarni to‘liq qamrab olish va soliqlar yig‘iluvchanligini oshirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, ishlamayotgan, iqtisodiy nochor korxonalarning faoliyatini qayta tiklash orqali mahalliy byudjet daromadlarini ko‘paytirish;
- tegishli byudjetlarning tasdiqlangan daromadlari rejasini bajarish, qonunchilik doirasida xarajatlar, shu jumladan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirilishini ta’minlash;
- Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar byudjetlarining umumiy hajmidan 1 foiz miqdorida tuman hokimliklari zaxira jamg‘armalari shakllantirilishi;
- bir moliya yilidan ortiq bo‘lgan davrdagi kassa uzilishlari yuqori byudjetdan 2 yilgacha bo‘lgan muddatga yillik 2 foizli byudjet ssudalari olish orqali qoplanishi va tegishli byudjetlar har chorak yakunida shakllantiriladigan daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismining mustaqil tasarruf etilishi mahalliy byudjetlar daromadlar siyosati motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi4.

Shunga mos ravishda, agar tegishli salmoqni ifodalovchi ko‘rsatkich darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning o‘rni ham yuqori va aksincha, xulosaga kelinadi. Shu munosabat bilan 2016-2021-yillar davomida davlat byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida soliq daromadlarining o‘zgarish dinamikasini 2-jadvalda ko‘rib chiqamiz.

2-jadval: Hududlar kesimida mahalliy byudjetlarining 2016-2021-yillardagi daromadlari5 (mlrd. so‘mda)

| Hududlar nomi | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 1186,2 | 1292,2 | 2241,1 | 2951,9 | 2743,9 | 1614,2 |
| Andijon | 1026,4 | 1264,8 | 1709,0 | 2624,6 | 2105,9 | 2352,2 |
| Buxoro | 1155,2 | 1335,6 | 1383,0 | 2409,4 | 1782,9 | 1935,4 |
| Jizzax | 685,7 | 715,4 | 948,3 | 1240,7 | 1058,0 | 1212,9 |
| Qashqadaryo | 1447,6 | 1786,6 | 2341,1 | 3783,3 | 2468,8 | 2570,3 |
| Navoiy | 685,4 | 745,3 | 1217,1 | 1877,6 | 1540,9 | 1535,8 |
| Samarqand | 1266,6 | 1557,3 | 1970,8 | 2567,0 | 2385,6 | 2657,0 |
| Surxondaryo | 970,9 | 1030,4 | 1378,3 | 1844,7 | 1605,7 | 1754,7 |
| Sirdaryo | 547,2 | 568,5 | 710,2 | 816,6 | 716,5 | 745,7 |
| Toshkent | 1664,8 | 1774,9 | 1949,3 | 3717,3 | 2395,5 | 3009,8 |
| Farg‘ona | 1980,2 | 2110,9 | 1833,2 | 3835,6 | 2677,3 | 2904,9 |
| Xorazm | 708,2 | 881,4 | 1106,3 | 1467,2 | 1302,4 | 1442,7 |
| Toshkent | 2115,5 | 2440,9 | 2800,1 | 3801,8 | 3156,3 | 4068,6 |
| Jami | 16310,1 | 18536,3 | 22947,9 | 35175,5 | 27702,9 | 29774,8 |

2-jadvaldan ko‘rinadiki, hududlar kesimida mahalliy byudjetlarning 2016-2021 yillardagi daromadlari 2016 yilga nisbatan daromadlarning ortish ko‘rsatkichlari nazarda tutilgan. Ushbu jadvalda ma’lumotlari xuddi yuqoridagi tarzda tahlil qilinsada, biroq mahalliy byudjetlarda daromadlarning barqaror sur’atlarda ortishi ta’minlangan.

Mahalliy byudjetlar daromadlar manbaini kengaytirish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlari bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan yer solig‘i qishloq xo‘jaligi yerlarining normativ qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblanishini joriy qilish to‘g‘risidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi 427-moddasida o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021 yil 30 iyuldagi 06/04-01-32/1115-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni amliyotga joriy etish natijada qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha 2021-yilning I yarim yilida, bu o‘zgarish kiritilgunga qadar bo‘lgan tizim bo‘yicha 156,9 mlrd.so‘m o‘rniga, 22.3 mlrd.so‘m mablag‘ kelib tushdi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari ixtiyorida 134,6 mlrd. so‘m mablag‘ qoldirilishi ta’minlangan.

4 Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.
5 Moliya vazirligi ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.

3-jadval: O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan viloyatlar mahalliy byudjetlariga 2020-2021 yillarda ajratilgan byudjetlararo transfertlar to'g'risida [6]

| № | Hudud nomi | 2021-yilda | | | | | | 2021-yilda tasdiqlangan reja (O'RQ-657) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Shundan | | Aniqlangan | Ajratilgan | |
| | | Tasdiqlangan | Kiritilgan o'zgarish jami | (O'RQ-589) 6-moddaga asosan | Soliq imtiyozi bo'yicha berilgan transfert | | | |
| Jami | | 5 114 | 5 057 | 4 579 | 478 | 10 171 | 10 171 | 10 443 |
| 1 | Qoraqalpog'iston | | 319 | 305 | 14 | 319 | 319 | 1 301 |
| 2 | Andijon | 616 | 442 | 421 | 20 | 1 058 | 1 058 | 877 |
| 3 | Buxoro | | 460 | 448 | 12 | 460 | 460 | 440 |
| 4 | Jizzax | 448 | 285 | 271 | 14 | 733 | 733 | 490 |
| 5 | Qashqadaryo | 758 | 479 | 460 | 19 | 1 237 | 1 237 | 1 577 |
| 6 | Navoiy | | 130 | 121 | 9 | 130 | 130 | |
| 7 | Namangan | 978 | 388 | 367 | 21 | 1 366 | 1 366 | 1 284 |
| 8 | Samarqand | 322 | 426 | 400 | 26 | 748 | 748 | 1 103 |
| 9 | Surxondaryo | 839 | 301 | 291 | 9 | 1 140 | 1 140 | 1 294 |
| 10 | Sirdaryo | 344 | 156 | 145 | 11 | 500 | 500 | 534 |
| 11 | Toshkent | | 289 | 231 | 58 | 289 | 289 | |
| 12 | Farg'ona | 352 | 351 | 321 | 30 | 703 | 703 | 910 |
| 13 | Xorazm | 457 | 296 | 271 | 25 | 753 | 753 | 633 |
| 14 | Toshkent | | 736 | 526 | 210 | 736 | 736 | |

Yuqoridagi tamoyillarning amalga oshirilishi natijasida o'rta muddatli byudjet istiqbolini belgilashning afzalligi va uning maqbulligi namoyon bo'ladi. Pirovard natijada, mahalliy byudjetlarining imkoniyatlarini to'liq hisobga olish ta'minlanadi. O'rta muddatli rejalashtirish yagona sikl doirasida (u istiqbolli moliyaviy rejani tuzish uchun zarur birlamchi hujjatlarni qayta ishlashdan boshlanadi va navbatdagi moliyaviy yil uchun byudjetni tasdiqlash bilan yakunlanadi) amalga oshirilib, u istiqbolli moliyaviy rejaning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanuvchi yillik reja orqali amalga oshiriladi. Byudjetni rejalashtirish sikli yagona ko'p yillik (uch yillik) byudjetni tuzish va tasdiqlash asosida ham amalga oshirilishi mumkin.




2-chizma: Mahalliy byudjetlarning O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlarining mustaqilligi koeffitsiyenti bo'yicha toifalanishi[7]

6 Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan tayyorlandi.
7 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ma'lumotlari asosida tuzilgan

Fikrimizcha, mahalliy darajada o'rta muddatli byudjet istiqbolini belgilashda quyidagi tamoyillarga rioya etilishini nazorat qilish maqsadga muvofiq:

- Olib borilayotgan moliyaviy siyosatning shaffofligini ta'minlash;
- O'rta muddatli byudjet istiqbolini belgilash asosida yotuvchi iqtisodiy prognozlarning hayotiyligini ta'minlash maqsadida foydalanilayotgan ma'lumotlar doirasini kengaytirish va hisobot davrlarida prognoz ko'rsatkichlaridan chetlashishlarni tahlil etish orqali oshirish;
- Moliyaviy resurslar taqchilligi yoki yetarliligi holatida byudjet siyosati barqarorligini ta'minlash maqsadida prgnozlashtirish modellari orqali iqtisodiy rivojlanishning siklik omillarini hisobga olish
- Daromad manbalarining kutilmaganda pasayishini hisobga olgan holda majburiy zahira tashkil etish, ya'ni iqtisodiy konyukturaning maqbul sharoitida hududlar moliyaviy holatini yomonlashishi davrida foydalanilishi mumkinligini hisobga olgan holda moliyaviy resurslarning bir qismini biriktirib qo'yish;
- Prognozlashtirish va rejalashtirishning variantliligi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, mahalliy byudjet daromadlarini oshirish maqsadida, to'liq quvvat bilan faoliyat yuritmayotgan xo'jalik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va moddiy sog'lomlashtirish zarur degan hulosaga kelib quyidagi takliflarni kiritdik:

1. Mahalliy hokimiyat organlarining byudjet ijrosini ta'minlash bo'yicha javobgarligini oshirish va shu bilan bir katorda ularni o'z huquqlaridan to'lik foydalanishini va mustaqilligini ta'minlash;
2. Hududlarda mahalliy byudjetlar manbaini kengaytirish uchun, qishlok xo'jalik mahsulotlarini kayta ishlash tarmogini rivojlantirish. Bu bilan hududning soliq bazasi kengayadi, qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi, aholining daromadlari oshadi;
3. Viloyatlarda mahalliy byudjet mablag'larini sarflashning asosiy yo'nalishlari mamlakatimiz respublika byudjeti bo'yicha mablag'larni sarflanishi asosiy yo'nalishlariga mos. Bu, eng avvalo, mamlakat miqyosida yagona moliyaviy siyosatning yurgizganligi bilan belgilanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi 2019 yil 9 dekabrdagi "2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida" O'RQ-589-son qonuni.
2. Alimardonov M., Tuxsanov Q. Soliqlar nazariyasi. – T.: «Adabiyot», 2005. – 209 b.
3. Ataniyazov J.X., Alimardonov E.D. Xalqaro moliya munosabatlari. /Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2014. – 556 b.
4. Burxanov A.U., Qurbonov X.A. Hududlarda mahalliy byudjetlar daromadlar manbaini kengaytirish yo'llari (Qashqadaryo viloyati misolida) // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil.
5. Vahobov A., Jumayev N., Xoshimov E. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi: sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish yo'llari. – T.: «Akademnashr», 2009. – 144 b.
6. Vahobov A., Xajibakiyev Sh., Muminov N. Xorijiy investitsiyalar: O'quv qo'llanma / i.f.d., prof. A. V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – T.: «Moliya», 2010. – 328 bet.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 8**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi 26-uy.

